



XALQ DEPUTATLARI SHAHRISABZ TUMAN KENGASHI Q A R O R I

2022 - yil 30 - sentabr

VI-46-84-4-67-K/22

Shahrisabz tuman hokimligi

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dagi mablag‘larni mazkur tadbirlarga yo‘naltirish to‘g‘risida

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va tuman hokimligi qoshida ochildan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dagi mablag‘larni mazkur tadbirlarga yo‘naltirish maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi “Tuman (shahar) budjetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risida»gi KQ-213-IV-sonli, hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 26-yanvardagi KQ-302-IV-sonli “Tuman (shahar) budjetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi KQ-302-IV-sonli Qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining “Ochiq budjet” axborot portali orqali “Tashabbusli budjet” jarayonida fuqarolar tomonidan o‘z hududidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha qoldirilgan takliflarning 3-bosqich, ya’ni “ovoz berish” jarayoni yakunida aniqlangan “g‘olib” takliflar ro‘yxati hamda undagi shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo‘yicha manzilli ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahrisabz tuman hokimligining matbuot xizmati (B.Halimov) va tuman hokimligi moliya bo‘limi (A.Bozorov)lar bilan birgalikda 3-bosqich, ya’ni “ovoz berish” jarayoni yakunida aniqlangan “g‘olib” takliflar, shuningdek, undagi shakllangan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Shahrisabz tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Baratov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Rustamov)lar zimmasiga yuklansin.

**Xalq deputatlari tuman Kengashi
raisi**



S.A.Xasanov

Xalq deputatlari Shahrisabz tuman Kengashining
2022 yil 30 sentabrda
VI-46-84-4-67-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Shahrisabz tumani bo'yicha 2022-yilning 2-mavsumida jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha
MANZILLI RO'YXAT**

№	G'olib taklif ma'lumotlari			Amalga oshirishning aniqlangan qiymati (ming so'mda)	Haqiqatda ajratilgan* (ming so'mda)	Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, budjet parametri)	Buyurtmachi tashkilot
	Taklif ID raqami	Qisqacha mazmuni	To'plagan ovozlari soni				
"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" da shakllangan mablag'					7 048 000	x	x
1	0660600134	Ommog'on qishlog'ida aholi soni keskin oshishi, yangi xo'jaliklarning ko'payishi hamda aholini ish izlab turli joylarda sarson bo'lishini oldini olish, hamda aholi o'zini o'zi band qilishini ta'minlash va daromad manbaiga zamin yaratish lozim. Aholining asosiy daromad manbai dehqonchilik va chorvachilik. Buning uchun esa sug'orish uchun suv taqchilligi katta muammo. Shu muammoni yechish uchun Ommog'on qishlog'iga "Tanxoz" daryodan suv olib kelish lozim. Bu ishlar uchun dastlabki ishlar boshlangan bo'lib, davom ettirish uchun esa qo'shimcha mablag' kerak bo'ladi.	16002	1 200 000	1 200 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Shahrisabz tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi
2	0660600073	Shaxrisabz tumani, Qo'rg'ondektor qishlog'iga, toza ichimlik suvi olib kelish	14625	1 150 000	1 150 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Shahrisabz tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi
3	0660600224	Shaxrisabz tuman Toshbuloq MFY Pastdektor kishlog'i ichki yo'llarini, qishloqda joylashgan 52-maktabgacha yo'llar ham ta'mir-talab holda. Jami 3 km ichki yo'llarini ta'mirlash.	10618	900 000	900 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Shahrisabz tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi

4	0660600141	HISOR MFY Kamar - Shurhasan, Do'stlik, Vardon qishloqlarigacha bo'lgan yo'lning 3 km qismiga asfalt yotqizish	9213	1 200 000	1 200 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Shahrisabz tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi
5	0660600079	Shahrisabz tumanidagi Almati va Qoratut qishloqlarining asosiy va ichki yo'llarini asfaltlashtirish.	8270	900 000	900 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Shahrisabz tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi
6	0660600147	Shakarteri MFY Shovkan kishlogida ARCHAZOR ko'chasini 2,5 km(ta'mirlashdan kolgan kismini) ichki yo'llarini asfalt qilish	4083	1 200 000	1 200 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Shahrisabz tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi
Taqsimlanmagan mablag'					498 000,0		